

HOZIRGI XITOIY TILIDA SINONIMLAR VA ULARNING TURLARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7355005>

MO‘MINOV Abror

Ilmiy maslahatchi: f.f.d.(DSc) Hashimova S.A.

*This article is devoted to synonyms and their
classification in modern Chinese.*

Nutqimizda bir xil yoki yaqin ma’noni anglatuvchi turli xil fonetik birliklar mavjud bo’lib, ular so’zning ma’nodoshligini, ya’ni sinonimiya hodisasini keltirib chiqaradi. Bir tushuncha, hodisa, narsa yoki belgini ifodalovchi, ma’nolari o’xshash yoki yaqin bo’lgan, turli ma’no sifatlarini va ekspressiv – stilistik bo’yoqlarni farqlash uchun xizmat qiluvchi so’zlar sinonimlar “同义词”(tóngyící)¹, ya’ni ma’nodosh so’zlar deb ataladi.

Odatda, bunday so’zlar sinonimik qatorga birlashtiriladi:

骄傲 jiāoào, 自豪 zìháo, 自满 zìmǎn - mag`rurlik, 漂亮 piàoliàng, 好看 hǎokàn, 美好 měihǎo, 美丽 měilì, 美观 měiguān - chiroyli, go`zal.

Bu so’zlari alohida sinonimik qatorga kiradi. Biroq sinonimik qatorga kirgan har bir so’z o’zining, qo’llanishi bilan farq qiladi. Bir sinonimik qatorga kirgan so’zlar bir xil so’z turkumiga oid bo’ladi, biroq ularning o’zagi, morfemik tarkibi, fonologik strukturasi, ma’no sifatleri va ekspressiv ma’nosi turlicha bo’ladi. Masalan, 脸 liǎn – yuz, 嘴 zuǐ – bashara, aft, turq, 面貌 miànmào – yuz so’zlarining ma’nolari juda yaqin, biroq ulardan bashara, aft, turq so’zlari bu sinonimik guruhda stilistik jihatdan kishining salbiy va yuz, chehra so’zlari esa ijobiylikni ifodalashda ishlatiladi. Bu sinonimik guruhga kiruvchi so’zlar konnotativ (ekspressiv) ma’nolari bilan ajralib turadi. Biroq bu sinonimik guruhga kiruvchi so’zlar yuz so’zining asosiy ma’nosi (sememasi) bilan birlashgan. Yuz so’zi mazkur sinonimik qatorning yetakchisi yoki dominant ghisoblanadi.

Sinonimlar bir umumiy ma’noni ifodalasa ham, shu ma’noni ifodalashiga ko’ra bir – biridan farqlanadi. Xitoy tilida sinonimlarni ikki guruhga bo’lish mumkin: birinchi guruh sinonimlariga, 衣服 yīfu, 衣裳 yīshang – kiyim – kechak; 肥皂 féizào, 胰子 yízi – sovun; 玉米 yùmǐ, 包米 bāomǐ, 包谷 bāogu, 棒子 bàngzi – makkajo’xori va boshqa so’zlarni misol qilib keltirish mumkin. Mazkur sinonimlar o’zaro ma’no jihatdan deyarli bir xil, odatiy vaziyatlarda bemalol almashtirib qo’llash mumkin va bu sinonimlar to’liq sinonimlar (等义词)² deb ataladi. Ikkinchi guruh sinonimlariga, 叫 jiào, 喊 hǎn – baqirmoq, chaqirmoq; 吃 chī, 食 shí – tanavvul qilmoq, ovqatlanmoq; 企图 qǐtú, 打算 dāsuan – intilmoq, harakat qilmoq; 繁华 fánhuo, 繁荣 fánróng – gullab – yashnash; 优良 yōuliáng, 优秀 yōuxiù – a’lo, juda yaxshi; 骄傲 jiāoào, 自豪 zìháo, 自满 zìmǎn – mag`rurlik, 关心 guānxīn, 关怀 guānhuái, 关注 guānzhu – g`amxo`rlik qilmoq va boshqalar kiradi. Mazkur guruh sinonimlari birinchi guruh sinonimlari bilan bir xil emas, ularning ma’nolari bir bo’lsada, lekin ba’zi farqli tomonlari mavjud, ishlatish vaqtida bemalol almashtirib qo’llay bo’lmaydi, bunday

¹ “现代汉语”上海教育出版社 2002年

² “现代汉语”上海教育出版社 2002年

sinonimlar to'liq bo'lmagan sinonimlar yoki “yaqin ma'noli so'zlar” (近义词),³ “shartli sinonimlar” (条件同义词)⁴ deb ham nomlanadi. Odatda sinonimlarning, yuqorida aytib o'tilganidek, ikki turi mavjud. Xitoy tilida ikkinchi guruh sinonimlari birinchi guruh sinonimlariga qaraganda ko'proq uchraydi. Lekin, o'zbek tilida sinonimlarni to'rt turga bo'lishadi:

1. Ma'no sifatiga putur yetkazmay, bir – birining o'rnida bemalol ishlatila oluvchi so'zlar to'liq sinonimlar deb ataladi: tilshunoslik – lingvistika.

2. Ma'nolari jihatdan farqlanuvchi sinonimlar semantik turga kiradi: botir, jasur, qo'rqmas, dadil.

3. Nutq situatsiyasi yoki kontekstda ma'nolari jihatda bir – birini o'rnida ishlatila oluvchi sinonimlar kontekstual sinonimlar deb ataladi: shoir, yozuvchi, adib.

4. Ma'no sifatlarida emotsional – ekspressiv hissiyotni ifodalovchi sinonimlar stilistik sinonimlar deyiladi: yuz, bashara, aft, chehra, nusxa, turq kabilar.

Bu tomondan olib qaralsa, xitoy tilidagi sinonimlarning guruhlari bilan bir – biriga o'xshashliklari mavjud ekanligini ko'rish mumkin.

Zamonaviy xitoy tilida bir buyum, bir tushunchani ko'p hollarda bir nechta, o'ndan oshiq, bir qancha o'nlab sinonimlar ifodalashi mumkin. Misol uchun bir harakatni bildiruvchi “看” kàn “qaramoq” fe'lining o'nlab sinonimlari mavjud. Ular sinonimik qatorni tashkil etadilar. Bu so'z, odatda ma'noviy munosabatda hajmdor, uslubiyatda esa neytraldir, u sinonimik qatorning asosiy so'zi (dominant so'zi) deb ataladi.⁵ Masalan:

ulardan odatiy qarashni ifodalovchi: 看 kan, 瞧 qiao, 瞅 chou; allaqachon ko'rib bo'lganini ifodalovchi: 见 jian, 看见 kanjian, 见到 jiandao, 睹 du; uzoqdan ko'rishni ifodalovchi: 望 wang, 眺 tiao, 眺望 tiaowang, 瞩目 zhu; tepadan qarashni ifodalovchi: 瞻仰 zhanyang, 仰视 yangshi, 仰望 yangwang; pastdan qarashni ifodalovchi: 俯视 fushi; boshini orqaga o'girib va har tomondan qarashni ifodalovchi: 顾 gu, 张 zhang, 张望 zhangwang; yashirincha, bildirmay qarashni ifodalovchi: 窥 kui; diqqatni bir joyga jamlab, e'tibor bilan qarashni ifodalovchi: 盯 ding, 瞄 miao, 注视 zhushi; ko'zlarini katta ochib, nafrat, g'azab bilan qarashni ifodalovchi: 瞪 deng, 瞠 cheng; sekingina qarab qo'yishni ifodalovchi: 瞟 piao, 瞥 pie, 望 wang, 流览 liulan; sinchiklab qarashni ifodalovchi: 察 cha, 观察 guancha, 相 xiang, 察看 chakan; xat, yozuv turlariga xos predmetlarga qarashni ifodalovchi: 阅 yue, 阅览 yuelan, 阅读 yuedu.

Xitoy tilida sinonimlar nutqda qo'llanishi, metodlari, qo'llash tahlili, nutq uslublarida o'ziga xos hususiyatlariga ega. Turli nutq uslublarini bildirishda ham sinonimlarning o'rni mavjud. Ba'zi sinonimlar faqatgina ma'lum bir nutq uslubida foydalanadi, ba'zi sinonimlar esa boshqa bir turdagi nutq uslubida qo'llaniladi. Misol uchun, ba'zi so'zlar ko'pincha og'zaki nutqda ishlatiladi, boshqalari esa yozma nutqda ishlatiladi. Masalan: 爸爸 baba – dada, 父亲 fuqin – ota; 妈妈 mama – oyi, 母亲 muqin – ona; 吓唬 xiahu – qo'rqitmoq, 恐吓 kongxia – o'takasini yormoq; 溜达 liuda – sayr qilmoq, 散步 sanbu – aylanmoq; 剃头 titou – qirqtirmoq, 理发 lifa – kestirmoq; 怎么 zenme – qanday, 如何 ruhe – qanday; 走 zou – piyoda yurmoq, 行 xing – piyoda yurmoq; 信 xin – xat, 函 han – xat.

Xitoy tili leksik sinonimlarini har xil farqlovchi belgilarini ko'rsatish uchun ularni 3 sinfga bo'lamiz: har xil tur – ma'noli, ekspressiv – stilistik va funksional – stilistik sinonimlar.

Har xil tur – ma'noli sinonimlar.

³ “现代汉语”上海教育出版社 2002年

⁴ “现代汉语”上海教育出版社 2002年

⁵ В. И. Горелов. «Лексикология китайского языка» М. Прос. 1984 год

Mazkur sinf sinonimlari fikrni aniqlash va vaziyatni aniqlashtirish vazifaini bajaradi. Ular ma’no ajratuvchi funksiyani bajaradi.

Har xil tur – ma’noli sinonimlar sinonimlar har xil belgilarni, masalan, aniq va majhul tushunchalarga xos belgilarni, ba’zida odam va hayvonlarga xos bo’lgan belgilarni differentsiya qila oladi. Bu sinf sinonimlari ko’p xollarda ma’no jihatidan yaqin bo’lgan harakatlarni farqini aniqlashtiradi.

隐藏 yincang – yashirinmoq, bekinmoq va 隐瞒 yinman – yashirmoq. Bu soʻzlarni birlashtirib turuvchi ma’no – “sir tutmoq”. Birinchi soʻz asosan, inson va hayvonlar uchun ishlatiladi, ikkinchi soʻz esa majhul tushunchalar uchun qoʻllaniladi. Masalan: 隐藏在幕后 yincang zai mu hou – sahna ortiga bekinmoq, 隐瞒缺点 yinman quedian – kamchilikni bekitmoq.

胖 pang – semiz, to’la va 肥 fei – yog’li. Bu soʻzlar uchun umumiy ma’no – “ko’p miqdordagi yog’ning mavjudligi”. Shu bilan birga ularning har biri qo’shimcha ma’noga ega: birinchi soʻz putunhuada qoʻllanilib, insonlar uchun ishlatiladi, ikkinchi soʻz esa faqat hayvonlar uchun qoʻllaniladi. Masalan: 近来他胖了好多。 Jinlai ta pangle haoduo. Oxirgi kunlarda u juda semirib ketdi.

关上 guanshang – yopmoq va 锁上 suoshang – quliflamoq, berkitmoq. Bu sinonimlar uchun umumiy ma’no – “biror – bir ochiq narsani yopmoq”.

按脉 anmai – pulsni tekshirmoq (paypaslab) va 号脉 haomai – pulsni tekshirmoq (sanab).

Mazkur sinf sinonimlari o’rtasidagi farq ma’no hajmi bilan, boshqacha qilib aytganda, semantik diapazon orqali aniqlanadi.

品质 pinzhi – sifat, xususiyat (insonlarga xos) va 品德 pinde – ahloqiy sifatlar, ahloq. Birinchi soʻz ikkinchi soʻga qaraganda kengroq ma’noga ega.

明白 mingbai – tushunmoq, aniqlamoq va 明确 – mingque – aniqlik kiritmoq. Zhou Zumoning aytishicha, birinchi soʻz insonning aqliy va his – tuyg’uli faoliyati bilan bog’liq, ikkinchi soʻz esa faqatgina intellektual faoliyatgagina bog’liq va uning ma’no hajmi tordir⁶. Masalan: 他讲得十分明白。 Ta jiang de shifen mingbai. U juda aniq qilib tushuntirdi. 使一切问题明确起来。 Shi yiqie wenti mingque qilai. Barcha savollarga aniqlik kiritish.

尊重 zunzhong – hurmat qilmoq, qadrlamoq va 尊敬 zunjing – hurmat qilmoq. Birinchi soʻz insonlar va predmetlarni anglatuvchi soʻzlar bilan ishlatiladi, ikkinchi soʻz esa asosan insonlar va ba’zi hollarda predmetlar uchun qoʻllaniladi. Masalan: 尊重别人的意见。 Zunzhong bieren de yijian. Birovning fikrini hurmat qilmoq.

事情 shiqing – ish, hodisa; 事件 shijian – hodisa, voqea va 事故 shigu – avariya, baxtsiz hodisa. Birinchi soʻz eng katta semantik hajmga ega, oxirgi soʻz esa eng kichigiga⁷. Masalan: 发生了意外事情。 Fasheng le yiwai shiqing. Kutilmagan hodisa sodir bo’ldi. 人类历史上的伟大事件。 Renlei lishi shang de weida shijian. Odamzot tarixidagi buyuk voqea. 车间里出了事故。 Chejian li chu le shigu. Sexda avariya sodir bo’ldi.

Sinonimik farqlilik ma’no gradatsiyasi bilan bog’liq bo’lib, harakat yoki sifatning o’sishi, kuchayishini ko’rsatadi.

请求 qingqiu – so’ramoq; 恳求 kenqiu – qattiq turib so’rash; 祈求 qiqiu – iltimos qilmoq, yolvormoq. Bu soʻzlar harakatni sekin – astalik bilan jadallashib borishini ifodalaydi va ma’lum gradatsiyani hosil qiladilar.

大 da – katta; 巨大 juda – ulkan; 庞大 pangda – juda katta, baxaybat. Bu leksik birliklar sifat belgisini sekin – asta o’sib borishini bildiradi.

⁶周祖谟。汉语词汇。北京，1959年，52页。

⁷高庆赐。同义词和反义词。上海，1957年，16页。

Ekspressiv – stilistik sinonimlar

Mazkur sinf sinonimlari asosiy predmetning ma’nosini anglatishdan tashqari, ularga subyektiv baxo va shu bilan birga ularni emotsionalligini oshirishni belgilaydi. Ular shu qatorda ekspressiv farqlilik funksiyasini bajarishadi.

Leksik sinonimiya tadqiqotchilari bir sinonimik qatorga ijobiy va salbiy ma’noni anglatuvchi soʻzlarni kiritib boʻlmaslik holatiga oʻz eʼtiborlarini qaratishmoqda⁸. Haqiqatdan ham bunday chogʻishtirish sinonimik qatorni buzib tashlashi mumkin, chunki ijobiy ma’noli soʻzlar til tizimida antonimlarni anglatishadi. Subyektiv baxoga ega boʻlgan soʻzlarni, neytral soʻzlar bilan chogʻishtirish maqsadga muvofiq. Masalan:

可爱 ke’ai – yoqimtoy; 亲爱 qinai – aziz, sevimli; 亲密 qinmi – yaqin, samimiy; 亲切 qinqie – yaqin, dilkash. Bu soʻzlar uchun umumiy ma’no – “yaxshi koʻrish, sevish xissi”. Oxirgi ikkita soʻz qalban yaqinlik ma’nosiga ham ega.

坚决 jianjue – qat’iy; 坚定 jianding – qat’iy, chidamli; 顽强 wanqiang – qattiq, matonatli; 固执 guzhi – gerdaygan, oʻjar; 顽固 wangu – gerdaygan, ters. Oxirgi ikkita soʻz inkorlik ma’nosiga ega.

方法 fangfa (办法 banfa) – usul; 手段 shouduan – usul, chora; 花招 huazhao – usul, tryuk, hiyla; 伎俩 jiliang – usul, hiyla – nayrang; 诡计 gui ji – usul, nayrang. Mazkur sinonimlarning umumiy ma’nosi – “harakatni amalga oshirish usuli”. 方法 fangfa va 手段 shouduan neytral – adabiy soʻz hisoblanadi. 花招 huazhao va 伎俩 jiliang konnotativ emotsional – baxolovchi ma’noga ega, ya’ni “ayyor, asosan yomonlik ma’nosida” qoʻllaniladi. 诡计 gui ji soʻzida salbiylik ma’nosi yaqqol koʻrinib turadi.

Funksional – stilistik sinonimlar

Mazkur sinf sinonimlarining vazifasi aniq muloqot doirasiga xarakterli boʻlgan stilistik tusni beradi. Ular usul farqlovchi funksiyani bajaradi.

Xitoy tiliga xos boʻlgan bir nechta sinonimlar wenyandan oʻzlashtirilib, putunhuada qoʻllanilganligi natijasida xosil boʻlgan. Bu putunhua soʻzlari wenyandan oʻzlashtirilgan.

消灭 xiaomie (歼灭 jianmie) – yoʻq qilmoq; 埋藏 maizang (安藏 anzang) – koʻmib qoʻymoq; 办法 banfa (措施 cuoshi) – usul, chora – tadbir; 思想 sixiang (思维 siwei) – fikr; 生日 shengri (诞辰 danchen) – tugʻilgan kun⁹.

Quyidagi sinonimik juftliklardagi birinchi soʻzlar neytral leksikaga tegishli, ikkinchi soʻzlar esa ogʻzaki usul leksikasiga tegishlidirlar.

头 tou (脑袋 naodai) – bosh; 前额 qian’e (脑门子 naomenzi) – peshona; 腮颊 saijia (腮帮子 saibangzi) – loʻnji; 身材 shencai (个子 gezi) – boʻy; 办法 banfa (法子 fazi) – usul; 看 kan (瞧 qiao) – qaramoq; 放 fang (搁 ge) – qoʻymoq; 匿名信 nimingxin (黑信 heixin) – anonim xat.

Neytral adabiy soʻzlar va xitoy tili ogʻzaki nutqda foydalaniladigan soʻzlardan hosil boʻlgan sinonimik juftliklarni koʻrib chiqamiz:

很 hen – juda va 老大 laoda – zoʻr; 最好 zuihao – eng yaxshi va 上好 shanghao – eng zoʻr; 青年人 qingnianren – oʻspirin va 小伙子 xiaohuozhi – yigit; 恐吓 konghe – qoʻrqitmoq va 吓毛 xiamao – choʻchitmoq.

Baʼzida uslubiy tus umumxalq tiliga tegishli sinonimlar va shevalarga (qavsda) xos sinonimlar orqali aniqlanadi.

⁸王理嘉, 侯学超. 怎么样确定同义词. 语言学论丛. 北京. 1963年, 248页.

⁹高庆赐. 同义词和反义词. 上海. 1957年, 26-27页.

太阳 taiyang (日头 ritou) – quyosh; 聊天 tantian (聊天儿 liaotianr) – suhbatlashmoq; 玩具 wanju (玩意儿 wanyir) – o`yinchoq; 什么 shenme (啥 sha) – nima? qaysi?; 做 zuo (搞 gao) – qilmoq¹⁰.

Neytral so`zlarning oldida termin (qavsda) so`zlarning mavjudligi ham sinonimik juftliklarni keltirib chiqaradi.

牙床 yachuang (齿龈 chiyin) – milk; 扭伤 niushang (脱位 tuowei) – chiqish (qo`l, yelka, oyoq chiqishlari); 抽筋 choujin (痉挛 jingluan) – tomir tortishishi; 肺癆 feilao (肺结核 feijiehe) – sil, o`pka sili.

Tildagi sinonimlar yig`indisi sinonimika deb yuritiladi. Sinonimika – til boyligi. Ularni bilish, qo`llash san`atini egallash yuqori nutq madaniyatining belgisidir: sinonimlar fikrni aniq va ravshan, rang – barang ifoda qilishga yordam beradi.

REFERENCES

1. 现代汉语. - 上海教育出版社, 2002 年.
2. Горелов В. И. Лексикология китайского языка. - М. Прос. 1984 год.
3. 周祖谟。汉语词汇。- 北京, 1959 年。
4. 高庆赐。同义词和反义词。- 上海, 1957 年。
5. 王理嘉, 侯学超。怎么样确定同义词。语言学论丛. - 北京, 1963 年。
6. 高庆赐。同义词和反义词。- 上海, 1957 年。
7. С.А. Хашимова. ХОЗИРГИ ХИТОЙ ТИЛИ СИФАТЛАРДА КОНВЕРСИЯ ХОДИСАСИ
- МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 2020
8. С Хашимова. О ЯВЛЕНИИ КОНВЕРСИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2022.
9. С.А.Насирова (2021). Политическая метафора (на примере материала по кадровой политике современной КНР). In Resent Scientific Investigation (pp. 69-73).
10. Хашимова, С. А. (2020). ОСОБЕННОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ РЕЗУЛЬТАТИВНЫХ ГЛАГОЛОВ ПРИ ПОМОЩИ СУФФИКСАЦИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In *Страны. Языки. Культура: сборник материалов XI-й международной научно-практической конференции/Под ред. проф. Абуевой НН Махачкала: ДГТУ. 391 с (р. 361).*
11. Хашимова, С. А. (2020). Особенности образования неодушевлённых существительных при помощи суффиксации в современном китайском языке. *Modern Oriental Studies*, 2(2), 34-46.
12. Nasirova, S. A. (2019). Modification of semantics of social terms of the modern Chinese language. *Opcción: Revista de Ciencias Humanas y Sociales*, (24), 260-273.
13. Хашимова, С. А. (2022). АГГЛЮТИНАТИВНАЯ ОСОБЕННОСТЬ СУФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 196-202.
14. Hashimova, S. A., & Nasirova, S. A. (2021). FEATURES OF FORMING OF ANIMATED NOUNS WITH THE AFFIXES IN MODERN CHINESE LANGUAGE. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(04), 1-10.
15. Насирова, С. А. (2020). Генезис общественно-политической терминологии китайского языка через призму истории китайской дипломатии. *Modern Oriental Studies*, 2(2), 22-33.

¹⁰周祖谟。汉语词汇。北京, 1959年, 55页。

16. Хашимова, С. А. (2022). О НЕКОТОРЫХ ОСОБЕННОСТЯХ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОГО АСПЕКТА КОММУНИКАЦИИ (НА ПРИМЕРЕ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА). *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 1(1), 85-91.
17. Хашимова, С. А. (2022, September). ОБРАЗОВАНИЕ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ С ПОМОЩЬЮ АФФИКСАЦИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In *E Conference Zone* (pp. 5-10).
18. Abdullayevna, H. S. (2020). Peculiarities of the formation of animated nonsignificant using suffixing in the modern chinese language. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1504-1511.
19. Хашимова, С. А. (2022). ОБРАЗОВАНИЕ ЧИСЛИТЕЛЬНЫХ ПРИ ПОМОЩИ АФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *World scientific research journal*, 7(1), 20-23.
20. Насирова, С. А., Хашимова, С. А., & Рихсиева, Г. Ш. ВЛИЯНИЕ ПОЛИТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ КИТАЯ НА ФОРМИРОВАНИЕ ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ. *Ответственный редактор*, 162.
21. NS Abdullayevna. 上合组织国家的科学研究: 协同和一体化。上合组织国家的科学研究: 协同和一体化, 87, 0
22. С.А.Насирова. Институт евнухов в древнем Китае: причины возникновения и особенности (2022). *Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации*. С. 187-188.
23. NS Abdullayevna. Языковая политика в Китае: идентификация общественно-политической терминологии (2019). In *КИТАЙСКАЯ ЛИНГВИСТИКА И СИНОЛОГИЯ* 3,384,2019